

ZAMONAVIY YOSHLARNING ORZU VA QIYINCHILIKLARI

Hayitova Nigina Murodillo qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti:koreys tili filologiyasi talabasi

Annotatsiya: Yoshlar har qanday jamiyatning kelajagi va tayanchidir.Ularning orzulari va maqsadlari ertangi kunni belgilab beradi.Bugungi kunda zamonaviy yoshlarning orzulari juda rang-barang:kimdir chet elda ta'lim olishni,kimdir o'z kasbida yuksak cho'qqilarni zabt etishni,yana kimdir esa ijodiy sohada o'zini ko'rsatishni istaydi.Zamonaviy yoshlar zamon bilan hamnafas bo'lishni,dunyo bilan hamqadam yashashni istashadi.Ularning eng katta orzularidan biri-yaxshi ta'lim olish va xorijiy tillarni o'rganishdir.Bu orzular orqali ular kelajakda yaxshi ish topish,o'z kasbini mukammal egallashni ko'zlashadi.Shuningdek,ko'plab yoshlar mustaqil bo'lishni,moliyaviy erkinlikka erishishni,baxtli oila qurishni ham o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan.Ushbu maqolada aynan zamon bilan birga chopqillab ketayotgan yoshlarning hayot yo'lidagi qiyinchilik va ulkan orzulari so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Har qanday qiyinchilik oldida kuchli bo'lish,mas'uliyat bilan yondashish,to'g'ri qaror qabul qilish,o'z ustida ko'p ishlab,yuqori cho'qqilarni zabt etish,omma oldida o'z bilimini ko'rsatishdan uyalmaslik.

Annotation: Youth are the future and support of any society. Their dreams and goals determine tomorrow. Today, the dreams of modern youth are very diverse: some wish to study abroad, some aim to achieve great success in their profession, and others want to show themselves in creative fields. Modern young people want to be in harmony with time and live in step with the world. One of their greatest dreams is to receive a good education and learn foreign languages. Through these dreams, they aim to find good jobs and master their professions perfectly. In addition, many young people set goals of becoming independent, achieving financial freedom, and building a happy family. This article discusses the life challenges and great aspirations of young people who are growing together with modern times.

Keywords: Being strong in the face of any difficulty, approaching with responsibility, making the right decisions, working hard on oneself, reaching great heights, and not being ashamed to show

Millat tayanchi,g'ururi albatta,o'sib,rivojlanib kelayotgan yoshlardir.Har qanday inson bu dunyoda maqsad va orzu bilan yashaydi.Lekin eng kuchlilarigina maqsadlarini amalga oshirib,shaxdam qadamlar bilan olg'a yuradi.

Nega eng kuchlilari dedim,bilasizmi?Maqsadlar bilan birga sinovlar,to'siqlar ham bo'ladi.Sinov insonni ulg'aytiradi,yangi tajriba va bilim beradi.Xato qilgan inson,xatoni anglay olgan inson yangilik qilishdan,sinab ko'rishdan to'xtamaydi..

Texnologiya rivojlangan davrda inson hayoti ham tom ma'noda qiyinlashib bormoqda.Texnika inson o'rnini egallab qo'yayotgandek tuyulsa-da,aslida u inson faoliyatini yengillashtirish uchun xizmat qilmoqda.Biroq,bitta haqiqatni unutmasligimiz kerak:ilm va bilim-insonni inson qiladigan eng katta quroldir.

Bilimga ega bo'lgan kishi hayot sinovlariga bardosh bera oladi,o'zining yangi ma'nosini,yangi yo'lini yaratadi.

Bugungi kunda yoshlar oldida ulkan imkoniyatlar ochilgan. Internet, cheksiz axborot maydoni, xorijiy tillar, zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lish-bularning bari yosh avlodning kelajakda katta marralarni zabt etishi uchun poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Har bir narsaning ijobiy tarafi bor bo'lishi bilan birga, salbiy tarafi ham bor.

Ulkan yutuqqa erishgan insonni ko'rsangiz, ichingizdan o'zingizni shu o'rinda tasavvur qilasiz, lekin u inson chekkan mashaqqat mevasidan totib ko'ringiz kelmaydi.

Inson shunaqa, har doim oson bo'lishini xohlaydi, tezda boyib ketishni, tezda dunyo tan olgan universitetlarda o'qishni va hokazo. Bu ro'yhatni davom ettirsak, oxiri yo'qdek nazdimda.

Zamonaviy yoshlar ham ikki guruhga bo'linmoqda. Biri vaqtinchalik hoyu-havas ortidan yugurayotganlar, ikkinchi guruh esa: beshikdan to qabrgacha ilm izla degan maqolga amal qilib yashayotganlar. Ba'zan hatto o'zim ham ikki tanlov orasida sarson qolib ketaman. Chunki biz yashab turgan davr texnikasiz biror muommoyimizni hal qilolmasligimizni har kuni isbotlamoqda. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiya yosh bolalarga multitaska faoliyatini o'rganishda yordam beradi. Masalan, bir vaqtning o'zida eslab qolish, yozish yoki eslatmalar olish kabi ko'nikmalar rivojlandi.

Video o'yinlar va interaktiv platformalar orqali yoshlar visual-ma'naviy (spatial) rivojlanishini vaholanki, bu – xarita o'qish yoki muommo hal qilish ko'nikmalarini mustahkamlashi ma'lum.

AQSHning Washington Universitetidagi psixologiya professorasi lyusiya Magis – Vaynberg ijtimoiy tarmoqning faqat salbiy emasligini, balki shaxs rivojiga ijobiy ta'sirlar ham borligini ta'kidlaydi. Texnologiya-rivojlanish va xavf manbasi, muhim savol shuni qanday ishlatishimiz lozim? Demak, hammasi o'zimizga bog'liq.

Yuqorida o'zimning sohamni yozib o'tgan edim. Keling, yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari, maqsadlari va sohadagi kamchilik, qiyinchiliklari tog'risida so'z yuritamiz. Sir emaski, tillar kesimida ingliz tili yuqori pog'onalarni hali hech qaysi tilga bo'shatib berayotgani yo'q. Bugungi globallashuv davrida ingliz tili eng ko'p o'rganilayotgan va xalqaro aloqalarda eng ko'p qo'llaniladigan tillardan biri bo'lib qolmoqda.

Turli manbalarda keltirilishicha, hozirda dunyo bo'ylab taxminan 1,5 milliarddan 1,75 milliardgacha inson ingliz tilini o'rganmoqda. Bu raqam-nafaqat o'quvchilar yoki talabalar, balki turli yosh va kasb egalari, shuningdek, ingliz tilidan kundalik hayotida foydalanishga ehtiyoji bor odamlarni ham qamrab oladi.

Masalan, British Council ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 1,5 milliard kishi ingliz tilini turli maqsadlarda o'rganmoqda. Boshqa manbalar esa bu ko'rsatkichni 1,75 milliardga yaqin deb qayd etadi. Til o'rganishdagi eng katta xato bu noto'g'ri ustoz tanlashdir.

Umuman, istalgan sohani o'rganish uchun avvalo, maqsadi va niyati aniq bo'lgan ustoz tanlash zarur. O'zimni misol qilib oladigan bo'lsam, koreys tilini tanlagan yilimdan boshlab to hozirgacha olgan bilimlarim orasida anchagina qiyinchilik va sinovlarni boshdan kechirdim.

Bu tajribalarim orqali boshqalar ham men qilgan xatolarni takrorlamasligini xohlardim.

Birinchi navbatda, o'z maqsadingizni belgilab oling, chunki maqsadsiz boshlangan ish natijasi ko'p hollarda ijobiy bo'lmaydi. Ustoz tanlash muommosini ko'rib chiqsak, bu hozirgi

davrda ancha katta muammoga aylanib bormoqda. Nega degan savolni berdingiz-a o'zingizga? O'qituvchi –o'zidan ham ko'proq bilim oluvchini o'ylaydigan kasb egasidir. Lekin ayrim qo'shtirnoq ichidagi o'qituvchilar shunchaki moddiy hayotini ta'minlash uchun ishlayotgandek go'yo.

Aynan o'zim koreys tili ustozini juda uzoq muddat qidirdim, chunki moddiyat sifatidan ustun deb fikrlaydigan ustozlaga yo'liqqan edim. Bu jumla bilan o'qituvchi kasbini qoraga chiqarish niyatim yo'q, lekin muammo kichkinalik paytidan hal qilinmas ekan, katta bo'lgan sari tugunlari ko'payaveradi. Ikkinchi muammoga keladigan bo'lsak, ko'pchilik zamonaviy yoshlar o'z xohish istaklarini chetga surib, pulning kuchiga qul bo'lishmoqda.

Bu jamiyatda o'z vaziyatida qanday muammolar keltirib chiqaradi? Eng globalini tahlil qiladigan bo'lsak, ish topish masalalari UNICEF va 'Yuksalish' hamkorlikdagi 2020-yilgi hisobotida respondentlarning 77%i ta'lim, 61,8% bandlikni asosiy muammo sifatida ko'rsatgan. Na ta'lim, na ishda o'z mahoratlarini ko'rsata olmagan yoshlar ham afsuski yo'q emas. 2018-yilda 14-30 yoshdagi yoshlarda bu ko'rsatkich 37%ni tashkil etgan, ayollarda esa 53%. 2024-yilda bitiruvchilarning faqat 41%i ikki oy ichida ish topgan, 59%i esa ish topmagan. Shunga qaramay, O'zbekiston 2025-2026 yillarda qurilishi rejalangan, 2,983 mikro gidroelektr stansiya sifatida yoshlarni malaka bilan ta'minlash, yashil iqtisodiyotda ish o'rinlarini yaratish g'oyasini ilgari surmoqda. 2025-yil iyun oyida UNDP, EAA, Vazirliklar va Notijorat tashkilotlar bilan birga O'zbekistonda 1.3 million yoshga iqlim ta'limi va yetakchilik ko'nikmalarini o'rgatadigan loyiha ishga tushirildi. 4000 qishloq yoshlari yashil kasb hunarga o'qitildi. Bu shunchaki son emas, bu yoshlar kelajagi uchun investitsiyadir. Afsuski, zamon rivojlangani sari, inson ham rivojlanmoqda, ham jarga qulamoqda. Ijtimoiy tarmoq deb atalmish o'rgimchak to'ri, ba'zan insonni haqiqiy manqurtga aylantirib qo'ymoqda desam mubolag'a bo'lmaydi. Oson yo'l bilan pul topaman deb, qanchadan-qancha yoshlar oxiri berik ko'chalarga kirib qolishmoqda, bu esa gullab turgan davrning tugashiga olib keladi. To'g'ri shunchaki davrni ayblash ham xato aslida, davr bilan birga insoniylik, mehr-oqibat, yordamga muhtoj insonlarga birgina tutiladigan qo'llar ham kamayib ketmoqda. Mehr-oqibat bor joyda hamma yuksaladi, past ko'rilmaydi. Beshikdan to qabrgacha ilm izla degan gap bejiz emas. Bilimli, salohiyatli inson hech kimdan kam bo'lmaydi, hech kimga muhtoj ham bo'lmaydi. So'nggi 1 yil ichida O'zbekistonda yoshlar orasida jinoyatlar sezilarli darajada ko'paygani kuzatildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakat bo'yicha jami 132 mingdan ortiq jinoyat qayd etilgan bo'lib, ularning qariyb 60 foizi yoshlar, ya'ni 14-30 yosh oralig'idagilar tomonidan sodir etilgan. Voyaga yetmaganlar-bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni esa 3,3 mingdan ortiqni tashkil etib, umumiy ko'rsatkichning 5,6 foiziga to'g'ri keldi. Ularning asosiy qismini o'g'irlik, beodamlilik, firibgarlik va zo'ravonlik jinoyatlari egallaydi. Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, ayrim jinoyatlar, masalan, qasddan o'ldirish, firibgarlik va o'g'irlik biroz kamaygan bo'lsa-da, giyohvand moddalar bilan bog'liq huquqbuzarliklar, talonchilik va zo'ravonlik xatti-harakatlari yoshlar orasida keskin oshgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kengaygani sababli kiberjinoyatlar — onlayn firibgarlik, noqonuniy qimor va raqamli zo'ravonlik hollari tez sur'atlarda ko'paymoqda. Shu vaziyatni inobatga olib, davlat tomonidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Sud tizimida yoshlar uchun qamoq jazosi o'rniga alternativ choralar

qo'llanila boshlandi, ayrim hollarda ularni tuzalish imkoniyati berilib, kechirish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Mahallalarda jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilib, profilaktika inspektorlari faoliyati kuchaytirildi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yoshlarni kiberjinoyatlardan himoya qilish, raqamli savodxonligini oshirish, huquqiy madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan loyihalar yo'lga qo'yildi. Masalan, 2025-yilda BMTning UNODC va UNDP agentliklari bilan hamkorlikda "Yoshlarning kiberjinoyatlarga bardoshlilikini mustahkamlash" dasturi boshlandi. Umuman olganda, so'nggi yilda yoshlar orasida jinoyatlar soni yuqori darajada qolayotgan bo'lsa-da, davlatning profilaktika ishlari, huquqiy tarbiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda kiberxavfsizlikni oshirishga qaratilgan choralari bu ko'rsatkichni kamaytirish va kelajak avlodni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qilmoqda. Albatta, tanganing ikkinchi tomoni bor bo'lganidek, bunday ishlarning ham bir yaxshi tomoni bor. Kelajak avlod yoshlari har sohada o'zlarini sinab ko'rishmoqda va tinimsiz mehnat qilib, ter to'kib muvaffaqiyat kalitlarini qo'lga kiritishmoqda. O'zbekiston yoshlari ilm-fan maydonida nafaqat mamlakatda, balki xalqaro darajada ham jiddiy muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Masalan, 2025-yilda Braziliyada bo'lib o'tgan 59-chi Xalqaro Mendeleev Kimyo Olimpiadasida O'zbekiston jamoasi tarixiy natija qayd etdi: ular 3 ta oltin, 2 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo'lga kiritdi — bu oldingi yilga nisbatan sezilarli darajada yaxshilangan natija edi. Shuningdek, ilmiy-innovatsion faoliyatda O'zbekiston Akademiyasi olimlari ham e'tiborga sazovor bo'lmoqda. Xususan, Akademiya kimyo sohasidagi olimi Shohnaza Azimova Evraziya Patent Tashkiloti (EAPO) tomonidan "fan va biotexnologiya" yo'nalishida yutuqlari uchun hurmatli medallarga sazovor bo'ldi. Uning ishlari parkinson kasalligi va koronavirusga qarshi innovatsion yechimlar topish bilan bog'liq bo'lib, 400 dan ortiq ilmiy maqolalar va 50 dan oshiq patentlar bilan mustahkam ilmiy obro'ga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil iyun oyida e'lon qilgan statistikaga ko'ra, yaqin yillarda O'zbekistonda yoshlar xalqaro ilmiy olimpiadalarda kuchli natijalar ko'rsatmoqda: "Ikki yil oldin 7 viloyatdan 45 nafar talaba olimpiadalarda sovrin olgan bo'lsa, faqat 2025-yilning birinchi yarmida 10 viloyatdan jami 166 medal yutib olingan". Bundan tashqari, innovatsiyalar va ilmiy ishlarda ham boshqa ko'plab tashabbuslar mavjud. Masalan, InnoWeek.Uz-2024 doirasida O'zbekiston va Xitoy yoshlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan "Youth Innovation Forum" tashkil etildi. Bu forum doirasida elektr transporti sohasida amaliy loyiha ustida ishlash imkoniyati yaratildi. Hamda "Mirzo Ulug'bek avlodlari" tanlovi orqali 211 tuman bo'ylab talantli yoshlar aniqlanib, xalqaro maydonda ham ishtirok etish imkoniyati berilmoqda. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston yoshlari so'nggi yillarda ilm-fan sohasida katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Ular kimyo, fizika, matematika kabi fanlardan xalqaro olimpiadalarda yuqori natijalarni qayd etib, oltin, kumush va bronza medallarni yutib olishmoqda. Bu natijalar yoshlarning bilim olishga intilishi, mehnatsevarligi va o'z ustida tinimsiz ishlashi tufayli amalga oshmoqda. Shu bilan birga, yosh tadqiqotchilar ilmiy maqolalar yozib, dunyoning nufuzli jurnallarida chop ettirishmoqda. Bu esa ularning nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ham tan olinishiga sabab bo'lmoqda. Davlat tomonidan ham yoshlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Masalan, “Mirzo Ulug‘bek avlodlari” tanlovi, “InnoWeek” innovatsion haftaligi va xalqaro hamkorlikdagi turli ilmiy forumlar yosh olimlar uchun katta maydon ochib bermoqda. Shuningdek, Scopus bazasida yuqori natijalarga erishgan yoshlar maxsus mukofotlar bilan taqdirlanmoqda, patent va ixtirolar uchun rag‘batlantiruvchi tizimlar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Bu esa yoshlarning yangi g‘oyalar yaratishiga, ilmiy izlanishlar olib borishiga va o‘z iqtidorini namoyon etishiga katta turtki bermoqda. Eng muhimi, yoshlarning ilmiy yutuqlari butun jamiyatimiz uchun g‘urur va iftixor manbaidir.

Chunki har bir medal, har bir patent yoki xalqaro e‘tirof — bu nafaqat yosh olimning shaxsiy muvaffaqiyati, balki O‘zbekistonning nufuzi va kelajagi uchun ham katta hissa hisoblanadi. Shu bois, yoshlarning ilm-fanga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, ularga imkoniyat yaratish va rag‘bat berish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Kelajakda ham yoshlarimiz ilmiy izlanishlari, yangi kashfiyotlari va innovatsion g‘oyalari bilan yurtimizni dunyo miqyosida tanitadi. Biz, yoshlar esa ilm olishdan charchamasdan, yangilikka intilib, ilm-fan orqali Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.uzdaily.uz. The number of crimes in Uzbekistan in 2024 exceeded 132,000 cases
2. Daryo.uz. UNODC, UNDP launch initiative to strengthen Uzbekistan’s youth offenders
3. Kun.uz. More than 2 thousand minors convicted in Uzbekistan in 2022